



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

 <p>«KELISHILGAN» San'atsununoslik Fakulteti S. Azimov 25 02 2023 y.</p>	 <p>«KELISHILGAN» O'quv ishlari bo'yicha projektor R.G'. Jumayev «25» 02 2023 y.</p>
---	--

Vokal san'ati: (turlari bo'yicha) yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon  
DASTURI

2.00. Umumkasbiy fani:

2.08. Ansambl sinfi (maqom xonandaligi)

3.00. Ixtisoslik fanlari:

3.01. Maqom yakka xonandaligi

Buxoro – 2023 yil

## ANNOTATSIYA

5150600 – Vokal san'ati: (turlari bo'yicha) fan dasturi talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.



Bitiruvchi talabalar dasturda ko'rsatilgan musiqa asarlaridan ikkitasini ijro etib, asar to'g'risida o'zlarining fikr va mulohazalarini bayon etishlari talab qilinadi.



Bitiruvchilar "Ansambl sinfi" hamda "Maqom yakka xonandaligi" fanlari bo'yicha quyidagi tartibda imtihon topshiradi:

1. An'anaviy xonandalik
2. BMI.

Vokal san'ati: (turlari bo'yicha) yo'nalishi barcha bitiruvchilar belgilangan dasturni yakka tarzda, jo'rnavoz jo'rligida yoddan ijro etishlari shart.

Bitiruvchi-talabalar asar matnini xatosiz, intonatsiya sofligiga va talaffuzga e'tibor berib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarishi, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalari qo'llanilib, tovush kuchiga e'tibor berib ijro etishi lozim.

<b>Tuzuvchilar:</b>		M.O.Raxmatova, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedresi
		O'.X.Ramazonova, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedresi

<b>Taqrizchilar:</b>		Sh.B.Matyoqubov, Yu. Rajabiy nomidagi O'MMSI-Maqom xonandaligi kafedresi dotsenti
		B.X.Madrimov, Musiqa ta'limi kafedresi professori, p.f.n

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. 2023 yil « 31 » 01 dagi 8 - sonli bayonnoma.

## KIRISH

Vokal san'ati: (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malaka (daraja)si hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi "Ixtisoslik fanlari" fanlaridan amaliy imtihon topshirishi nazarda tutilgan.

### **I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni.**

O'zbekiston Respublikasi 2017 - 2018 yillarda yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatorida "musiqa san'atini yanada rivojlantirish va yutuqlarni targ'ibot qilish" belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida "Yangi avlod o'quv dasturlari va adabiyotlarini izchil yaratib borish" vazifasi qo'yilgan. Ushbu "Ansambl sinfi" fanining dasturi ana shu vazifalar ijrosi doirasida tuzildi.

O'quv dasturini tuzishda oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, an'anaviy xonandalik ta'lim yo'nalishi fanlari uchun Namunaviy dastur hisoblanadi.

### **II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi.**

"Ansambl sinfi" fanining asosiy maqsadi an'anaviy xonandalik ta'lim yo'nalishi talabalariga ashulalar tahlili bo'yicha nazariy - uslubiy bilim hamda ko'nikma berishdan iborat. Uning asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- an'anaviy xonandalik asoslari, nazariyasi va metodikasi bo'yicha bilim berish;
- an'anaviy xonandalik yo'nalishi fanlarining bosh mavzularini belgilash;
- an'anaviy xonandalik ko'nikmasi, malakasi va mahorati bilan qurollantirish;
- ijodiy layoqatni o'stirish;
- ilmiy tuuqiqod ishlariga yo'naltirish;
- maqom asoslari bilan qurollantirish;
- an'anaviy ijrochilik usullari va uslublari bilan tanishtirish;
- Shashmaqom ashulalarining janrlari bo'yicha bilim berish;
- Shashmaqom ashulalarini ijtimoiy - falsafiy va badiiy - esieuk jinatdan tahiil qilish bo'yicha nazariy qurollantirish;
- Shashmaqom ashulalarini tahlil qilish vositasida o'zlashtirish uslublari bilan qurollantirish;
- Shashmaqom ashulalari tahlili natijalari asosida ijro mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish.

### **III. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)**

#### **I-Modul. Ansambl sinfi fanining maqsadi va vazifalari, ijro ta'limidagi o'rni**

##### **1 — mavzu. Ansambl sinfi nazariy - metodik asoslari**

"Ansambl sinfi" tushunchasi. Ansambl sinfmi o'qitishga doir me'yoriy hujjatlar. Ansambl sinfi nazariyasi va metodikasi.

##### **2 - mavzu. Ansambl sinfi tarixi**

Ansambl sinfi xususiyatlari va uning an'anaviy xonandalik yo'nalishi. Ansambl sinfi qadimgi, o'rta asriar va hozirgi zamon tarixiy bosqichlari.



### **3- mavzu. Ansambl sinfi xususiyatlari**

Ansambl sinfi xususiyatlari. Ansambl ijro uslublari. Ansambl sinfida ko'nikma, malaka va mahorat.

Mashhur hofizlarning faoliyati va ijro uslublari.

### **4 - mavzu. Ansambl sinfini o'qitish uslubiyoti**

Ansambl sinfini o'qitish asoslari, iste'dodlari va tamoyillari. Ashulalarni o'zlashtirish yo'llari.

Ansambl sinfida xonandaning iste'dod va qobiliyatini o'stirish.

### **5 — mavzu. Ansambl sinfi inahorati**

An'anaviy xonandalikda ansambl sinfi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Ansambl sinfi va ijro mahorati Ansambl sinfida mashg'ulotlar xususiyatlari.

### **6-10 mavzu. Ijro dasturini tayyorlash.**

Tanlangan ijro dasturining mohirona ijrosi ustida ishlash.

### **11-18- mavzu. Sahna madaniyatini egallash.**

Ijro malakasini rivojlantirish va asardagi barcha kamchiliklar ustida ish olib borish. Talabalarning ovoz texnik mukammalligini oshirish. Asar ijrolarini sahnada namoyishi uchun tayyorlash.

### **2-Modul. Ijro dasturi ustida ishlash.**

#### **19-21- mavzu. Shashmaqom Nasr qismlaridan.**

Ijrochilik uslublari ustida chuqur ishlash. Berilgan usulga yetkazish. Matn bo'yicha ko'rsatilgan uslubda ijro etish.

#### **22-25-mavzu. Bastakor asariaridan.**

Ijro dasturini taxlil qilish, o'zlashtirish. Dastur melizmlari ustida ishlash.

#### **26-29- mavzu. Farg'ona-Toshkent maqomlaridan asarlar tanlash.**

Dasturdagi asarda qo'llanadigan ijro melizmlari, qo'llash ustida ishlash. O'tilgan mavzular moduli va bajarilgan mashq-topshiriqlar bo'yicha baholash.

#### **30-33- mavzu. Xalq kuylaridan namunalar.**

Ijro dasturiga asarlar haqida to'liq ma'lumot berish. Shu bilan birga taniqli san'atkorlar ijrosini tinglash.

#### **34-36 - mavzu. Ijro dasturini sahnaga olib chiqishga tayyorlash.**

Asarlar badiiylik jihatlari ustida ishlash. Sahna madaniyati ustida ishlash.

### **IV. Amaliy mashg'ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular.**

1. Maqomlarning Nasr ya'ni ashula bo'limlaridan.
2. Xalq shulalari;
3. Mumtoz ashulalar;
4. O'zbek bastakorlari asarlari;

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosan amaliy ijro yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini, amaliy ijro orqali boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv

qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan, CD va DVD foydalanish orqali talabalar bilimini oshirish tavsiya etiladi.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

“Ansambl sinfi” fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilar rahbarligida amaliy ijro mahoratiga ega bo'ladilar. Auditoriyadan tashqarida darslarga tayyorlanadilar, musiqiy adabiyotlardan, audio va video yozuvlardan foydalanadilar, uyga vazifa sifatida berilgan asarlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot to'playdilar va tayyorlanadilar. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi asarlarni mustaqil o'rganish, audio-video yozuvlardagi turli ijrolarni tahlil qilish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

1. Tanlangan asar muallifining hayoti va ijodini o'rganish;
2. Ustozlar ijrosini tahlil qilish;
3. Ansambl bo'lib ijro qilish ko'nikmasini shakllantirish;
4. Tanlangan asar tonalligida mashqlar bajarish
5. Mashg'ulot jarayonining asosiy bosqichlarini o'rganish.
6. Asarlar tahlili va ular ustida ishlash.
7. Dasturda ijro etilayotgan asarlarni badiiy obrazi, xarakterini me'yoriga etkazish.
8. Imtixon yoki kontsertga tayyorlanish.
9. Ansamblda ijrochilikning asosiy turlari va ishlari.
10. Mashg'ulotlarda talabalarning ovoz texnik mukammalligini oshirish.
11. Shashmaqom taxlili va ijrochilik mahoratining asosiy xususiyatlari.
12. Ijro dasturi xaqida ma'lumot berish.

#### **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**

##### **Asosiy adabiyotlar**

1. Yo'lchiyeva M. An'anaviy yakka xonandalik - T., 2018
2. Bo'riyeva K. Ansambl sinfi T., 2018
3. Karimova M. An'anaviy yakka xonandalik - T., 2018

##### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasini 2017 -2021 yillarda rivojlantirishning beshta yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil 6 (766) - son, 25 - 50 - betlar.
2. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // “Xalq so'zi” gazetasi 2017 yil 4 avgust soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida” gi Qarori.// “Xalq so'zi” gazetasi 2017 yil 18

noyabr soni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 23 dekabr soni.
5. Ibrohimov O. Farg'ona- Toshkent maqomi. - T., 2006
6. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. - T., 1978
7. Rajabov I. Maqomlar. -T., 2004
8. Matyakubov O. Maqomot. - T.: "Kamalak", 2004
9. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. - T.: "O'zadabiynashr", 1963
9. Shashmaqom (Buxoro maqomlari). // O'zbek xalq muzikasi. V tom. - T.: O'zadabiynashr. 1959
10. Xorazm maqomlari. // O'zbek xalq muzikasi. VI tom. T.: O'zadabiynashr. 1959
11. Matyakubov Sh. An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubi - T., 2015
12. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik tarixi - T., 2015

### Internet saytlari

1. WWW. gov. uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.
2. WWW. lex. uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. [www.maqom.uz](http://www.maqom.uz)
4. [www.artist.uz](http://www.artist.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [www.rnuzik.uz](http://www.rnuzik.uz)
8. [www.classicmuzik.uz](http://www.classicmuzik.uz)
9. [www.artmuzik.ru](http://www.artmuzik.ru)

### BAHOLASH MEZONI

"Ansambli sinfi" fanidan bakalavriyat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijro usulda o'tkaziladi. "Ansambli sinfi" fanidan 2 ta asar 2 ta asarning har biridan olishi mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, qolgan 50 ballni BMIdan jami 100 ball to'plash mumkin.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Asar matnini xatosiz, intonatsiya sofligiga va talaffuzga e'tibor berib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarishi, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalari qo'llanilib, tovush kuchiga e'tibor berib ijro qila olsa "A'lo" baho qo'yiladi.
2	18 -21	Yaxshi (71-85)	Xalq ashulasi mumtoz va maqom nasr sho'balari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa, ansambli ijrosi jarayonida o'zi va boshqalarni eshitish malakalarini egallagan bo'lishi lozim. Musiqiy asarlarni o'rganish jarayonida, mazkur asarga mos, asarlarini mustaqil ijro etib, tahlil qila olsa, mohirona ijro eta olmasa "Yaxshi" baho qo'yiladi.



3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Ansambllar turlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa; asar parchalarini qisman tahlil qila olsa; ma'lum musiqa asaridagi lad, o'lchov, alteratsiya belgilari, ashula diapazoni, ijroda to'liq ifodalay olmasa, ansambl tarkibidagi asarni mukammal ijro eta olmasa " <b>Qoniqarli</b> " baho qo'yiladi
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Asarlarini mustaqil tahlil qila olmasa, ansambl ijrochiligidagi asarlarga doir amaliy mashqlarni bajara olmasa " <b>Qoniqarsiz</b> " baho qo'yiladi.

### **Maqom yakka xonandaligi**

#### **O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni.**

O'zbekiston Respublikasi 2017 - 2018 yillarda yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatorida "musiqa san'atini yanada rivojlantirish va yutuqlarni targ'ib qilish" belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida "Yangi avlod o'quv dasturlari va adabiyotlarini izchil yaratib borish" vazifasi qo'yilgan. Ushbu "Maqom yakka xonandaligi" fanining o'quv dasturi ana shu vazifalar ijrosi doirasida tuzildi.

O'quv dasturini tuzishda oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, an'anaviy xonandalik ta'lim yo'nalishi fanlari uchun Namunaviy dastur hisoblanadi.

#### **II. O'quv fanining maqsad va vazifasi.**

"Maqom yakka xonandaligi" fanining asosiy maqsadi an'anaviy xonandalik ta'lim yo'nalishi talabalariga ashulalar tahlili bo'yicha nazariy - uslubiy bilim hamda ko'nikma berishdan iborat. Uning asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- maqom yakka xonandaligi asoslari, nazariyasi va metodikasi bo'yicha bilim berish;
- maqom yakka xonandaligi yo'nalishi fanlarining bosh mavzularini belgilash;
- maqom yakka xonandaligi ko'nikmasi, malakasi va mahorati bilan qurollantirish;
- ijodiy layoqatni o'stirish;
- ilmiy - tadqiqod ishlariga yo'naltirish;
- maqom asoslari bilan qurollantirish;
- an'anaviy ijrochilik usullari va uslublari bilan tanishtirish;
- Shashmaqom ashulalarining janrlari bo'yicha bilim berish;
- Shashmaqom ashularini ijtimoiy - falsafiy va badiiy - estetik jihatdan tahlil qilish bo'yicha nazariy qurollantirish;
- Shashmaqom ashularini tahlil qilish vositasida o'zlashtirish uslublari bilan qurollantirish;
- Shashmaqom ashularitahlili natijalari asosida ijro mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish.

#### **III. O'quv fani bo'yicha qo'yiladigan talablar.**

- "Maqom yakka xonandaligi" fani bo'yicha talabalarga quyidagi talablar qo'yiladi:
- maqom yakka xonandaligi asoslari, nazariyasi va metodikasi bo'yicha bilim olish;
  - maqom yakka xonandaligi yo'nalishi fanlarini chuqur o'zlashtirish;
  - maqom yakka xonandaligi ko'nikmasi, malakasi va mahoratini egallash;
  - ijodiy layoqatini o'stirish;
  - ilmiy - tadqiqod ishlari asoslari bilan tanishish;
  - maqom asoslarini o'zlashtirish;

- an'anaviy ijrochilik usullari va uslublarini egallash;
- Shashmaqom ashulalari janrlari bo'yicha bilimga ega bo'lish;
- Shashmaqom ashulalari tahliliga doir nazariy qarashga ega bo'lish;
- Shashmaqom ashulalarini tahlil vositasida o'zlashtirish ko'nikmasini egallash;
- tahlillar natijasi asosida ijro mahoratini oshirib borish malakasini egallash.

#### **IV. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

##### **1 - mavzu: An'anaviy yakka xonandaligining nazariy - metodik asoslari**

“Maqom yakka xonandaligi” tushunchasi. An'anaviy xonandalikni o'qitishga doir me'yoriy hujjatlar. An'anaviy xonandalik nazariyasi va metodikasi.

##### **2 - mavzu: An'anaviy yakka xonandalik manbalari**

Maqom yakka xonandaligi manbalari: musiqiy risolalar, ilmiy tadqiqotlar, ashulalar, qo'shiqlar, kuylar.

An'anaviy xonandalik ashulalari janrlari va badiiy - estetik xususiyatlari.

##### **3 - mavzu: An'anaviy yakka ijrochilik tarixi**

An'anaviy yakka ijrochilik xususiyatlari va uning an'anaviy xonandalik yo'nalishi.

Maqom yakka xonandaligi ijrochiligining qadimgi, o'rta asrlar va hozirgi

- Shashmaqom ashulalarining janrlari bo'yicha bilim berish;
- Shashmaqom ashulalarini ijtimoiy - falsafiy va badiiy - estetik jihatdan tahlil qilish bo'yicha nazariy qurollantirish;
- Shashmaqom ashulalarini tahlil qilish vositasida o'zlashtirish uslublari bilan qurollantirish;
- Shashmaqom ashulalaritahlili natijalari asosida ijro mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish.

##### **5 - mavzu: An'anaviy yakka xonandalik mahorati**

Maqom yakka xonandaligi da mahorati: ko'nikma, malaka va tajriba. Xonanda mahorati va individual ijro uslubi.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Maqom an'anaviy yakka xonandaliklari haqida ma'lumot yig'ish.
- Xonandalar maqom yakka xonandaligi bilan ishlash qonun qoidalarini takomilashtirish.
- Xonandalar maqom yakka xonandaligi mos asarlarga misollar.
- Ayol va erkak ovozlarning joylashuvi.
- G'azallarni tahlil qilish orqali jamoani asarga nisbatan mehrini oshirish.
- Maqom sho'balari xonandalar maqom yakka xonandaligi moslashtirish yo'llari.

Xonandalarning sozandalar an'anaviy yakka xonandaliki bilan muloqot natijalari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan maqom an'anaviy yakka xonandaliklarida eshitib, o'rganish qilish tavsiya etiladi.

#### **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- An'anaviy yakka xonandaliklar haqida ma'lumot va ularning tasnifi;
- Jo'rovoqlik va hamnafaslik;
- Xonandalar an'anaviy yakka xonandaliki va ularning joylashish qoidalari;



- Ovozlami turlarga ajratish va ular bilan ishlash qoidalarini;
- An'anaviy yakka xonandalikda erkak ovozlarning o'zmi;
- An'anaviy yakka xonandalikda ayol ovozlarning o'zmi hamda erkak ovozlari bilan munosabati;
- Xonandalik an'anaviy yakka xonandaliki haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Hozirgi zamon maqom an'anaviy yakka xonandaliklarini;
- Ijro dasturini;
- Ovozlami mazmunli ishlatishni;
- Xonandalami bir hil nafas olishni ta'minlashni;
- Umumiy ovozlarko'lamini aniqlashni;
- Asarlami xonandalar an'anaviy yakka xonandalikiga moslashni;
- Xonandalar sahnada qay tarzda turishi, akademik ijroni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Xonandalar nafaqat so'zlar orqali kuylahni balki nota orqali ashulalarni ijro etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Yo'lchiyeva M. An'anaviy yakka xonandalik - T., 2018
2. Bo'riyeva K. An'anaviy yakka xonandalik sinfi - T., 2018
3. Karimova M. An'anaviy yakka xonandalik - T., 2018

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini 2017 -2021 yillarda rivojlantirishning beshta yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil 6 (766) - son, 25 - 50 - betlar.
2. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 4 avgust soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 18 noyabr soni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 23 dekabr soni.
5. Ibrohimov O. Farg'ona - Toshkent maqomi. - T., 2006
6. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. - T., 1978
7. Rajabov I. Maqomlar. - T., 2004
8. Matyakubov O. Maqomot - T.: "Kamalak", 2004
9. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. - T.: "O'zadabiynashr". 1963
10. SHashmaqom (Buxoro maqomlari). // O'zbek xalq muzikasi. V tom. - T.: O'zadabiynashr. 1959
11. Xorazm maqomlari. // O'zbek xalq muzikasi. VI tom. - T.: O'zadabiynashr. 1959
12. Matyakubov Sh. An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubi. - T., 2015
13. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik tarixi - T., 2015
14. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi - T., 2019

## Internet saytlari

1 [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi xukumat portal.

2 [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3 [www.maqom.uz](http://www.maqom.uz)

4 [www.artist.uz](http://www.artist.uz)

5 [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

6 [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

7 [www.muzik.uz](http://www.muzik.uz)

8 [www.classicmuzik.uz](http://www.classicmuzik.uz)

9 [www.artmuzik.ru](http://www.artmuzik.ru)

## BAHOLASH MEZONI

“Maqom yakka xonandaligi” fanidan bakalavriat yo‘nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi amaliy ijro usulda o‘tkaziladi. “Maqom yakka xonandaligi fanidan 2 ta asar 2 ta asarning har biridan olishi mumkin bo‘lgan maksimal ball 25 ga teng bo‘lib, jami 100 ball to‘plash mumkin.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Asar matnini xatosiz, intonatsiya sofligiga va talaffuzga e'tibor berib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarishi, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalari qo'llanilib, tovush kuchiga e'tibor berib ijro qila olsa "A'lo" baho qo'yiladi.
2	18 -21	Yaxshi (71-85)	Xalq ashulasi mumtoz va maqom nasr sho'balari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa, ijro jarayonida o'zini eshitish malakalarini egallagan bo'lishi lozim. Musiqiy asarlarni o'rganish jarayonida, mazkur asarga mos, asarlarini mustaqil ijro etib, tahlil qila olsa, mohirona ijro eta olmasa "Yaxshi" baho qo'yiladi.
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Xalq ashulasi mumtoz va maqom nasr sho'balari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa turlari haqida qisman ma'lumotga ega bo'lsa; asar parchalarini qisman tahlil qila olsa; ma'lum musiqqa asaridagi lad, o'lchov, alteratsiya belgilari, ashula diapazoni, ijroda to'liq ifodalay olmasa "Qoniqarli" baho qo'yiladi
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Asarlarini mustaqil tahlil qila olmasa, yakka ijrochiligidagi asarlarga doir amaliy mashqlarni bajara olmasa "Qoniqarsiz" baho qo'yiladi.

## “Ansambli sinfi” hamda “Maqom yakka xonandaligi” fanlari va BMI dan talabalarning bilimni aniqlash va baholash mezonlari

№	Umumiy talablar	Maksimal ball	Olgan ball
1.	Ijro dasturi: Ijro dasturining har biriga 25 balldan	50 ball	
2.	Tanlangan mavzuning dolzarbligi, tuzilgan rejaning mazmunan to'liqligi, bitiruv malakaviy	50 ball	



ishining maqsadi va vazifalarini aniq ko'rsatilganligi.

**15 ball**

Rejada berilgan savollarning matnda aks ettirilishi, bitiruv malakaviy ishini talab darajasida rasmiylashtirilishi. **5 ball**

Mavzuni yoritishda, uni o'rganilganlik darajasini tahlil qilishda, chet el va respublikada nashr etilgan adabiyotlardan foydalanish darajasi. **10 ball**

Mavzu bo'yicha keltirilgan jadval ma'lumotlaridagi ko'rsatkichlarning oxirgi yillarni qamrab olinganligi, tahlil qilish bo'yicha iqtisodiy usullarni bilishi. **15 ball**

Mavzu yuzasidan respublikamizdagi va xorijiy mamlakatlar tajribasining o'rganilganlik darajasi va uni tatbiq etish yuzasidan berilayotgan takliflar. **15 ball**

Mavzu bo'yicha qilingan xulosalar, berilgan takliflarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganlik darajasi. **10 ball**

Matnda, keltirilgan manbalarning adabiyotlar ro'yxatiga mosligi, ulardan o'z o'rnida foydalanilganlik darajasi. **10 ball**

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritib berishda, uni himoya qilishda ko'rgazmali ma'lumotlardan, ilg'or axborot va pedagogik texnologiyadan foydalanish darajasi. **10 ball**

Bitiruv malakaviy ishi chet tilida talab darajasida bajarilishi va himoya qilinishi. **10 ball**

Ijro dasturi bo'yicha to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball – **100 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg'uda ijro uchun - 50 ball, kollokvium - 50 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida bitiruv imtihonlarga qo'yiladigan maksimal ball – 100 ball

### **Pedagogik-metodik dasturlar bilan tanishish**

Talabaga to'g'ri dastur tanlash. Vokal mashqlari va ularning turlari. Vokalizlar. O'zbekiston bastakorlarining estrada asarlari. Rus estradasi kompozitorlarining asarlari. Dunyo estrada yulduzlari dasturidagi asarlar. Zamonaviy o'quv metodik adabiyoti, Asosiy o'quv qo'llanmalar va darsliklar va ularning qisqa xarakteristikasi.

### **Ovoz mashqlarining asosiy vazifalari**

1. Kuylashda nafasni vokal ixtisosiga mos darajada olish;
2. Kuylashda "artikulyatsiyani" tug'ri ishlatish;
3. Tomoq (ovoz) mushaklarini rivojlantirish;
4. Sof intonatsiyaga erishish;
5. Ovoz diapazonini (doirasini) kengaytirish;
6. Barcha kuylash texnikalari: kuychanlik (kantilena), stakkato, non legato, tayanchli tovush



(opyortqy zvuk), falg'tset, tovush filirovkasi, ovoz dinamikasi (forte, piano) ni egallash;

7. Estrada xonandaligi uslubidagi barcha texnik yo'nalishlarini egallash.

### **Ovoz mashqlarini bajarishda qo'yiladigan asosiy talablar**


Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni nafaqat kuylab ko'rsatish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozini tug'ri yo'naltiradi, hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni onson yengib o'tadi.

Eng avvalo ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. SHundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

### **Ovozni ishlatish xususiyatlari**

Ish jarayonida ustozning idroki nihoyatda xushyor bo'lishi, tomoq siqilishi, artikulyatsiyaning notug'ri pozitsiyada ekanligi va xususan ovoz toliqishini o'z vaqtida payqab olib zarur choralar ko'rishi shart. Dars jarayonida talabada vokal mashqlarining barcha turlari "M" (yumuq) tovushdagi yopiq lablar bilan ochiq tarzda unli tovushlar, hamda unli va undosh tovushlar birligida "legato", "stakkato", "arpedjio", intervallar, gammalar, kichik kuylarni (popevka) kuylash va ulardan tegishli malakalar va ko'nikmalar shakllanishi lozim.

**Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasini mudiri:**



**T.I.Rajabov**